

**SUD-TIBBIY EKSPERTIZA (TIRIK SHAXSLAR) TEKSHIRUVIDA  
MALAKALI MUTTAXASSISLAR MASLAXATI ZARURLIGINI  
SUD-TIBBIY AHAMIYATI**

*Normamatova Gulmira Baxodir qizi*

*Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyat filiali  
Bekobod tumanlararo sud-tibbiy ekspertiza bo'linmasi. @Bektumste*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sud-tibbiy ekspertiza (tirik shaxslar) tekshiruvda malakali muttaxislar maslaxati zarurligini sud-tibbiy ahamiyati tahlil qilinadi. Sud-tibbiy ko'rikga kelgan ko'rikdan o'tuvchi fuqarolarni birlamchi tibbiy xujjatlariga shifokorlar tomonidan qo'yilgan tashxislar to'liq bo'lmagan holatlarda malakali muttaxislar maslaxati zarur bo'ladi, ushbu holatlarda sud-tibbiy ekspert tibbiy xujjatlarini ko'zdan kechirgan xolda shifokorlar tomonidan qo'yilgan tashxislar aniq bo'lmaganda, shubxali tashxislar aniqlanganda hamda ko'rikdan o'tuvchi fuqarolar shikoyatlariga qarab muttaxisga yo'llanma asosida tashxisga aniqlik kiritish maqsadida savolarga qo'yilib yuboriladi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot, malakali muttaxis, tashxis, fuqaro, shubxa, kamchiliklar, ko'rik, huquq, qonuniy.

Sud-tibbiy ekspertiza tekshiruvdan o'tkazilishdan maqsad: jabrlanuvchi, gumonlanuvchi yoki boshqa shaxsda tan jarohatlari, ularning darajasi va xususiyatini aniqlash; tan jarohatining paydo bo'lish mexanizmini va vaqtini aniqlash; shaxsning sog'lig'iga etkazilgan zarar darajasini huquqiy tasniflash; spirtli ichimlik, narkotik yoki boshqa moddalar ta'sirini aniqlash.

Ambulator tekshiruvda:

1. Shaxsning shikoyatlari va voqea tafsilotlari yozib olinadi.
2. Umumiy ko'rik o'tkaziladi (bo'yi, vazni, umumiy ahvoli).
3. Teri, shilliq qavat, tana a'zolari ko'riladi, jarohatlar tavsiflanadi.
4. Zarur hollarda laborator yoki instrumental tekshiruvlar (masalan, qon, siydik, rentgen) tayinlanadi.

Qachon muttaxislar maslahati zarur bo'ladi?

1. Murakkab jarohatlarda (masalan, miya, yurak, o'pka, jigar jarohatlari) – tor soha shifokorlari (neyroxirurg, kardiolog, travmatolog, jarroh) jalb qilinadi.
2. Psixik holatni baholash kerak bo'lsa – sud-psixiatr yoki psixolog maslahat beradi.
3. Zaharli moddalar, dori yoki spirtli ichimlik ta'sirini aniqlashda – toksikolog yoki farmakolog jalb qilinadi.
4. Laborator, rentgenologik yoki patomorfologik tahlillar murakkab bo'lsa – shu

soha mutaxassislari ko‘magi olinadi.

5. Pediatriya yoki ginekologik holatlarda – pediatr, akusher-ginekolog jalb qilinadi.

**Professionalizm:** Sud-tibbiy ekspertiza jarayonida ba’zi hollarda malakali mutaxassislarning maslahatidan foydalanish zarur bo‘ladi. Bu holat qonuniy jihatdan ham belgilangan bo‘lib, ekspert o‘z bilim sohasidan tashqaridagi masalalarda boshqa soha mutaxassisi bilan maslahatlashishi yoki qo‘shimcha xulosa olish huquqiga ega. Mutaxassis hodisa bo‘yicha o‘z fikrini yozma yoki og‘zaki tarzda bildiradi. Zarur bo‘lsa, konsilium (bir necha mutaxassis ishtirokidagi maslahat) o‘tkaziladi. Mutaxassisning fikri ekspert xulosasiga qo‘shimcha dalil sifatida kiritiladi, lekin yakuniy qarorni faqat sud-tibbiy ekspert chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 dekabrda "O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ4049-sonli qarorining mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda sud-tibbiy ekspertiza xizmatini samarali tashkil etish, - ekspertlar o‘rtasida raqobatni kuchaytirish, ekspertiza o‘tkazish sifatini va shaffofligini hamda huquq tartibot organlariga adolatli va ob‘ektiv xulosa berilishini ta’minlash maqsadida:

Sud-tibbiy ekspert(lar)ga ekspertiza jarayonida mutaxassislarning ishtirok etishi, maslahatlar berishi, klinik-laborator va instrumental tekshiruvlarni o‘tkazish yuzasidan muassasa rahbarlari har qanday yordam berishlari shartligi hamda zarurat bo‘lganda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi va uning hududiy filiallariga mutaxassislarni safarbar qilinishi ta’minlansin.

**Xulosa:** Jarohat va holatni to‘liq, xolis va ilmiy jihatdan asosli baholash imkonini beradi. Sud-tergov organlariga aniqroq va adolatli xulosa taqdim etiladi. Keyingi tibbiy yoki huquqiy xatolarning oldi olinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 dekabrda "O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ4049-sonli qarori.

2. Sud-tibbiyoti. Z.A.G‘iyosov. "Asian house" 2021 y.

3. O‘zbekiston Respublikasida sud-tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi Me‘yoriy hujjatlar. Toshkent 2012y.3.

4. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси. Тошкент. 2008

5. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. Тошкент. 2008.

6. Ўзбекистон Республикаси "Суд экспертиза тўғрисида" ги қонуни. 2010 йил 1 июн.

7. “Суд-тиббиёт экспертизаси тадқиқотларини ўтказиш тартиби тўғрисида”ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2025 йил 13 январдаги 9-сонли буйруғи.

8. “Тан жароҳатларининг оғирлик даражасини суд-тиббий аниқлаш қоидалари”. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2012 йил 01 июндаги 153-сонли буйруғига 2-илова.